

# NAVOIY XAMASIDA AMIR XUSRAVI DIHLAVIY

## Öz

Bu adabiyotlardan kelib chiqqan Amir Ali Sher Navoiy va Amir Xusrevi Dihlaviylar barcha Turk – Ozbek va Fors adabiyotning farhangiy buyuk shaxsiyatlaridan bo'lib, bu maydonda tanilgan. Shunday bo'lsa ham, asarda Navoiy'ning va Amir Xusravi Dihlaviy'ning adabiy asarlar haqida gaplar yuritilgan. Ularning har bir kalomidan namuna keltiramiz. Bu asarlarda ularning tug'ilgan joylari, kamolotlari va boshqa o'namli gaplari haqida qimmatli so'zlar aytilgan. Biz hech ko'rmasdan yozilmagan so'zlarni axtarib bir – bir asarlarida uchratdik, yana ham qiziqroq shaklni o'ziga mos qilish uchun boshqa asarlardan ham osig'lanildi. Navoiy'ning shi'rlarini o'qib, har bir so'zlaridan foydalanib va uning asarlarida bahosiz gavharlarni toppish qiyin bo'lmagan. Shuning uchun uning asarlarini sinchiklab, Navoiy'ning hayotiga ko'ra aytilgan gaplarni yig'ib olish muhimdir. Boshqa ishlarda ham bunday bir qimmatli so'zlardan – so'z yuritilmagan vayo boshqa suratda kelgan. Biz ham ochiq oydin qilib ko'rsatdik.

**Kalit so'zlar:** Amir Ali Sher Navoiy, Amir Xusravi Dihlaviy, O'zbek Hind robitalari va Xamsa.

**AMIR KHUSRAW DEHLAWI IN AMIR  
ALI SHIR NAWAYEE'S KHAMSA**

ULUSLARARASI  
TÜRK DÜNYASI  
ARAŞTIRMALARI  
DERGİSİ  
INTERNATIONAL  
JOURNAL OF  
TURKISH WORLD  
STUDIES  
CİLT 4 / SAYI 3 /  
TEMMUZ 2021

**Sorumlu Yazar  
Corresponding Author**

Muhammad Yaqob  
QARASH  
Afganistan, Belh  
Universitesi Edebiyat  
Fakultesi Türkçe-  
Özbekçe Bölümü  
Öğretim Üyesi  
Yaqob.hamrah@gmail.com

**Gönderim Tarihi  
Recieved**  
18.06.2021

**Kabul Tarihi  
Accepted**  
02.08.2021

**Atf**  
QARASH, Muhammad  
Yaqob (2021). "Navoiy  
Xamsasida Amir  
Xusravi Dihlaviy",  
*Uluslararası Türk  
Dünyası Araştırmaları  
Dergisi*, (4/3), 105 - 115.

ARAŞTIRMA  
MAKALESİ  
RESEARCH ARTICLE

### Abstract

Emir Ali Shir Nawayee and Amir Khisraw Dihlavi, who come from the same origin, are renowned cultural personalities representing all Turk (Uzbek) and Fars nations. Even so, this paper presents brief information about Nawayee and Amir Khisraw Dihlavi's literary works by giving an example of each of their narratives. These works include valuable information about their birth places, identities, and other important details. Reading Nawayee's poems, we may benefit of every verse and find valuable pearls in each of his works. Therefore, it would be essential to learn about and act according to Nawayee's life by reading his works. With a close focus we will recognize beautiful discourses that are unseen or never used in other works. Amir Ali Shir Nawayee in one of the adherents of Amir Khesraw Dehlawi. He provides accurate information in his literary work about Amir Khesraw Dehlawi by evaluating his works and has a different outlook about his personality.

**Keywords:** Emir Ali Shir Nawayee, Amir Khusraw Dehlawi, Uzbek and Hind links and Khamse.

### Kirish

Mashhur kishilarning talabalari ham ustodlari kabi ko'p mashhur bo'ldilar. Hazrati Muhammad Mustafó (s.a.v) payg'ambarimiz Hazrati Abubakir, Hazrati Umar, Hazrati Usmon, Hazrati Ali (rz)lar kabi buyuk Imom Buxoriyning yetishtirgan shogirdlaridan o'nlarchasi dunyo bo'yiga tonildilar. Alisher Navoiyning hayotida Lutfiy Hiraviy, Sayid Hasan Ardasher, Abdurrahmoni Jomiy, Fazlulloh Abullays va Ahmad Hoji Bek kabilarning talabasi deb tarix sahifalaridan yer olgan. Soda so'zlar bilan aytganda "Xamsa" asarida Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dihlaviy va Abdurrahmon Jomiy va ba'ziy ulamolar Navoiyga ustodlik qilganlar.

O'zlariga Navoiyni ham ustod intixob qilgan ulamolar ham ko'p bo'lgan. Chunki uning asarlariga ihtirom qoyil bo'lganlar tashqarisida "Xamsa" yozganlar ham bor. Ular takmil qila olmaganlar.

#### 1. Xamsa va Qadimgi Manba'lar

"Xamsa" yozish 'ana' nasini davom ettirganlar dunyoga tonilib va buni farqli tillarda yozilgan. Alisher Navoiyni Turk

duyosi va Fors adabiyotidagilarning ham hammasi o'z shoirlar va yozuvlari deb tarif va tavsif qilganlar. Ularning asarlari dunyo tillariga tarjuma qilingan.

Qadimgi so'zlar va istilohlardagi dek, yaxshi inson bilan robita qo'rib, Navoiydan urganmoq va undan taqlid qilish ham bir 'ana'na shakliga aylangan. Eski manba'larga qaraganda, Hazrati Navoiyga o'xshaganda, Hazrati Navoiyga monand bir qancha shoir va yozarlar ko'rinadi. "Xamsa" shaklida yozilgan asar va shunga u'xshash asarlar ham davom ettirilgan va davomi bor (Baytoniy, 1990: 89). Hazrati Navoiyning o'ziga xos uslubi bo'lib, farqli shaklda tahqiqi ishlar qilgani ham taqdirlanadi. Hazir ham bu sheva davom etmoqda. Shuning uchun, Hazrati Navoiyning asarlarini king shakilda o'rganish va bu 'ana'nani ijtimoga tarqatish lozim. Bu faqat o'z davrasidan boshlangandir. Bu robitada Abdurrahmoni Jomiy, Husayni Boyqaro, Xond mir kabi kishilarning ko'rmamaslikdan utish mumkin emas. Bu tarix oqimi davomli shakilda oqmoqda. Bu bo'lib o'tgan ishlarni Turk davlatlaridagi Navoiy shinoslar ham tahqiq qilmoqdalar va "Xamsa" asari haqida ba'zi maqolalar yozilgan (Ishonch va Kohkan, 1995: 284). Men ham bu iki buyuk sarkardaning robitalari haqida 'umumiy ma'lumot beraman.

### **1.1.O'zbek va Hind Millatining Robitalari**

O'zbek va Hind millatlarining do'stlik tarixi ko'p qadimdandir. Abu Rayhoni beruniy (973-1048) dunyoda tonilgan. Eng mashhur bilimdanlardan biridir. Beruniy hayotida ko'p qiyinchiliklar ko'rib, hayotining ko'pi qismini begona o'lkalarda o'tkazgan. Beruniyning "Hindustonlik" otli asarida musulmollar va Hindularning arasidagi farqlari, robitalari, tillarining farqli bo'lishi sabablarini, bu iki qarindoshlarning arasidagi muhim robitalarini bayon qilgan (Malayov, 2000: 24).

Pahlavon Mahmud (1248-1326) Xorazm mahallasining Xeva shahrida duyoga kelgan va gurashda butun dunyoda tonilganidir. Pahlavon Mahmud Hindustondagi musobiqalarga ishtirok etib, hammasiga g'olib chiqqan (Ishonch va Kohkan, 1995: 185).

Hazrati Bobur Mirzo (1483-1530) va uning avlodlari uch yarim yuz yillik davra ichida Hindustonni idora qilib, king va komiyoblik bilan muaffaq bir davlat qurganlar. Bu davra (1525-

1858) yillar arasida davlatdorlik qilganlar. Bu davralardan soʻz yuritilganda Hinduston davlati koʻp tarqqi qilib va doʻstligini bar qaror qildi. Hind ulusining buyuk rahbari Javohir Laʼl Neru, “ Hindustonning kashf etilmasi” nomli asarida, Amir Xusravi Dihlaviy, Hazrati Bobur Mirzo kabi kishilarning faʼoliyatlariga koʻp muhim bergan (Malayov, 2000: 321).

Amir Xusravi Dihlaviy bu davraning eng mashhur shoir va yozarlaridan boʻlganligini takidlab, Bobur va Boburilarning Hinduston mamlakatining taraqqi etishiga katta hissa qushgan. Hazrati Bobur Mirzoga “dilbar kishi” digan. Hazrati Boburning avlodlari hanuz ham Hindustonda borligidan xabar beriladi (Malayov, 2000: 328).

Uluslar arasi katta tarixiy pishraftni Abul Hasan Xusravi Dihlaviy bogʻlab, koʻp asarlari dunyoga mashhurdir. Amir Xusravi Dihlaviy farqli tillar bilan tonishib, Turk, Oʻzbek va Hind tillarini koʻp yaxshi biladi. Buni asarlaridan toniladi.

## **1.2. Amir Xusravi Dihlaviyning Hayot Hikoyasi**

Amir Xusravi Dihlaviyning tom oti Yamoniddin Abul Hasandir. Dihlaviy Hindustonda 1253 tarixida dunyoga kelgan. Amir Xusravi Dihlaviy, shahri Sabz Qartol qabilasiga mansubdir. Katta ‘ulamolar ham 73 sanalik hayot yashamishdir. Otasi Sayfiddin Mahmud (Amir Mahmud), kesh shahri Sabz shahrida dunyoga kelib Mugʻul davrasida zur shartlar bilan Hindustonga koʻchmoq sharti bilan qolmish. Buyuk shoirning otasi mugʻullar urushida vafot qilgan. Shuning uchun katta bobasi Imomatullah, nabirasiga oʻzi dars bergan. Amir Xusravi Dihlaviy kichikligidan boshlab, oʻqib yozmoqni oʻrganish uchun koʻp zahmatlar qilgan (Dehxudo, 1377: 254). Yosh shoir qadar shartlari yuzidan farqli sulton saroylarida zahmat chikkan. Shu sababdan ijodiyotga mamoniaʼt chiqmamishdir. Nizomiddin Avliyo unga ustodlik qilgan.

Amir Xusravi Dihlaviy ijodiy ishlari bilan bir arada, davlatning ijtimoiy ishlarida ham faʼoliyat koʻrsatgan. Bu esa uning ham kultural hamda ijtimoiy ‘ulamosi boʻlib mashhur boʻlganini koʻrsatishdir. Natijada, u davraning Hinduston sultoni Jaloliddin Firuz Shoh. Amir Xusravi Dihlaviyga amirlik ‘unvonini berib, unga bir katta yer sovgʻo bermish va 1200 tanga qimatida oylik maʼosh taʼyin qilgan. Shoir va davlat ‘ulamosi boʻlib hayoti-

ning oxirigacha saroyda yashamini davom ettirmish. Oxirgi besh yillik yashaminda G'iyosiddin Tug Lug Shoh saroyida amirlik etmish (Xonlariy Kayo, 1385: 48).

### **1.3. Amir Alisher Navoiyning Amir Xusravi Dihlaviy Ijodiy Survatiga Bo'lgan Munosibati**

Xusravi Dihlaviy butun hayoti bo'yicha yetti sulton saroyida xizmat qilidir. Mashhur shoir va yozardir. Xalqning moddi va ma'naviy ishlarida doyim olib, xizmat va yordam sevar buyuk shoirdir. Dihlaviy 19-20 yoshga kirgan paytlarida shiir yozishga boshlab, o'zini tonita boshladi. Shoir birinchidan o'z ona tilida va Fars, Urdu va Arabiy tillarda ham ko'p yaxshi gaplab bilgan. Dihlaviy birinchi shiirini Urdu tilida yozish, "sultoni" digan shiiridir (Xonlariy Kayo, 1385: 51).

Qadimgi manba'larga qaraganda, Amir Xusravi Dihlaviy ijodi farqli va ko'p boyligi bilan o'rta chiqqan. Abdurrahmon jomiy, Xusravi Dihlaviyning ko'p kitoblar yozganligidan xabar beradi va boshqa manba'lar ham bu so'zlarni taidlaganlar. Uning shiir sohasida ko'p g'aniy bo'lganligidan dalolat qilib, 500 ming misra'dan ortiq ikanligini ko'rsatadilar. Bundan boshqa ham mashhur shoirning 100 ming misra'dan ortiq lirik shiirlari borligi ham ma'lum bo'lib, besh ayri devonga jam'langan. Devonlar bulardan 'iborat:

1. Tuhfatussig'ar ( yoshlik sovg'asi, 1272, 16-19 yosh arasida yozilgan shiirlar)
2. Vasatul hayot (hayotning o'rtasida, 1284, 20-32 yosh arasida yozilgan shiirlar)
3. G'urratul kamol ( yigitlik boshlanmasi, 33-43 yosh arasida yozilgan shiirlar)
4. Baqiyatunnaqiya ( saralarning sarasi, 1316, qarrilikda yozilgan shiirlar)

Nihoyatul kamol ( kamolning nihoyasi, 1325, shoir hayotining so'ngi yillarida yozilgan shiirlar) (Dehxudo, 1377: 253).

### **1.4. Hazrati Navoiy bilan Dihlaviy Munosibati**

Hazrati Navoiyning, Amir Xusravi Dihlaviy bilan munosibati haqida o'zining qimmat baho fikrlarida ko'rinadi. Navoiyning Amir Xusravi Dihlaviyga bergan muhim robita ahmi-

yatini ba'zi asarlarida ko'rish mumkin. Hazrati Navoiy, Amir Xusravi Dihlaviyning "daryoiy abror" asari haqida go'zal fikir yuritgan. Hatto uning haqida ta'rif va tavsif uchun yozilgan jumlar ham o'jiz qoladi deb so'z yuritgan.

Hazrati Navoiyning eng mashhur asari bo'lgan "Xamsa" da Amir Xusravi Dihlaviyning muhimligini va bir-biridan juda ham yaxshi asarlar yozganligi haqida go'zal jumlar yozib, bu misra'larni ko'rish mumkin:

**Kishi mundoq bo`la olmay guharrez,  
Magar ul hinduyizodi <sup>8</sup>shakarrez.**

**Ne hindu, to`tii shirin maqol ul,  
Ne to`ti, bulbuli sho`ridahol ul** (Navoiy, 2009: 17).

Bu mavzuda fikir yuritgan Hazrati Navoiy, Amir Xusravi Dihlaviyning Turk (O'zbek) ikanligi haqida ijodi fa'oliyatlari bilan va arab o'lkalarining diqqatini o'ziga tortganligidan xo'sh bo'lib so'z yuritgan va qanch vaqtda yozganligini ifoda qilib bunday bir ish bilan shug'ullangan:

**Chiqorib riyozatda qirq arba`in,  
Bu besh ganj rozig`a bo`ldi amin.**

**Yana Xusrav ul turki hindi laqab  
Ki ,so`z birla oldi Ajam to Arab.**

**Kushod aylaguncha bu mahkam hisor,  
Base aylab afsonada ixtisor.**

**Necha vaqt aning ham ishi bu edi  
Ki ,fikratqa zonu-bazonu edi.**

**Zamon xud o`tuz yilg`a andoz emas,  
Agar nisf emas, sulsidin oz emas** (Navoiy, 2009: 904).

## **1.5. "Xamsa"Da Xusravi Dihlaviy Ijodi Fa'oliyati Haqida Belgilar**

“Xamsa”chilik ‘ana’nasi 12.chi yuz yildan boshlagan. Birinchi “Xamsa”ni buyuk shoir Nizomiy Ganjaviy yozib asosini quygan. Ikinci “Xamsa”ni yozgan kishi mashhur shoir Amir Xusravi Dihlaviydir va bundan so’ngra “Xamsa” yozish ‘ana’nasini Abdurrahmoni Jomiy va Hazrati Navoiy davom ettirganlar. Bu ‘ana’na boshqa kishilar tamonidan ham boshlangan, ammo Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusravi Dihlaviy, Abdurrahmoni Jomiy va Hazrati Amir Kabir Alisher Navoiyning tahqiq ishlari ko’p katta yutuq bilan tamomlangan. Gapning qizig’i shundaki to’rt kishidan uchi Turk( O’zbek) urug’idan bo’lib va “Xamsa”lardan biri O’zbekcha va boshqalari Fors tilida yozilgan.

**Tushti chu rahrav bila payravg’a so’z  
Etti Nizomiy bila Xusravga so’z**

**Kim ne sifat olam aro soldi shayn  
Ikkisining xomasidin xamsatayn**

**Lek bu o’n turfaki, topmish jamol  
Ikki burung’isida bor o’zga hol**

**Gavhari yo’q «Maxzanul-asror»dek  
Axtare yo’q «Matlul-anvor»dek. (Navoiy, 2009: 33).**

Hazrati Navoiyning kunlar o’tib, “Xamsa” yozish orzusi ortiq bo’lib ortdi. Faqat undan avval yozgan ustodlari Forsi tilida yozganlar. Hazrati Navoiy, Forscha va Arabcha yozish qudrati bo’lib ham o’z asarini ona tilida yani O’zbek tilida yozishga qaror bergan:

**Menki talab yo’lida qo’ydim qadam  
Bordur umidimki, chu tutsam qalam**

**Yo’ldasa, bu yo’lda Nizomiy yo’lum  
Qo’ldasa, Xusrav bila Jomiy qo’lum (Navoiy, 2009:  
35).**

Amir Alisher Navoiy “Farhod va shirin” dostonida Amir Xusravi Dihlaviy haqida, uning ijodiyoti mavzusi va ahamiyati borasida uyg’og’ fikirlar bildirgan:

**Nizomiy dedi, Xusrav bo`ldi payrav  
Agar ul shoh edi, bu erdi xusrav**

**Tanosub topib ul ikki yagona  
Dedilar borcha Xusravdin fasona.** (Navoiy, 2009: 31 ).

Hazrati Navoiy, Nizomiy va Amir Xusravi Dihlaviyning asarlarini dunyoda tonilganini aytib va o’zining yozadigan “Xamsa” asari haqida ma’lumot beradi:

**Nizomiy olsa Barda birla Ganja,  
Qadam Rum ahlig’a ham qilsa ranja.**

**Chehib Xusrav dag’i tig’i zabonni,  
Yurub fath aylasa Hindustonni.**

**Yana Jomiy ajamda urisa navbat,  
Arabda dog’i cholsa ko’si shavkat.** (Navoiy, 2009: 487).

“Layliy va Majnun” asarida iki katta mashhur yozuvchining otlarini hurmat bilan tilga oladi:

**Afsonalari jahonda nomiy,  
Nazm aylab Xusravu Nizomiy**

**Kim, ishq so’zin rivoyat aylab,  
Ham bu ikidin hikoyat aylab.** (Navoiy, 2009: 43 ).

Hazrati Navoiy, “Sab’ai sayyor” asarini yozish niyatida uchun Amir Xusravi Dihlaviy tamonidan yozilgan “Hasht bihisht” asarlarini yozgan. Hazrati Navoiyning ham to’rtinchi dostoni bo’lib, asarlaridan osig’ olib, to’rtinchi dostonini tugatishga



qaror berganini shunday ochiqqlagan va shunday go'zal ifodalarni istifoda qilgan:

**Vaqt bo'ldiki, tortibon xoma ,  
Emdi to'rtunchi<sup>7</sup> yozg'asen noma.**

**To'rt gavharg'a bergasen tartib ,  
To'rg unurni qilg'asen tarkib.**

**Bo'lubon baxtu davlat iqboli ,  
Rub'i maskung'a bo'lg'asen voli.**

**“Haft paykar” ki, keldi mushk sirisht,  
Yana oning yonida “Hasht bihisht”.**

**Sen dag'i topibon fazoyi vase'  
O'truda solg'asen binoyi rafe'.** (Navoiy, 2009: 43 ).

“Sab'ai sayyor” dostonining yana bir yerida Amir Xusravi Dihlaviyning ijodi bilan bog'liq yangi gap bayon qilingan va bu misra'larda shunday in'ikos topgan:

**Dedi roviyki: “Hind erur vatanim ,  
Axiy avlodidin yaqin ekanim.**

**Beri keldim ko'ngul balosi bila ,  
Shohning qullug'i havosi bila”.** (Navoiy, 2009: 127 ).

Dostonning yana bir yerida Xusravi Dihlaviyning tug'ilgan yeri haqida ma'lumot bergan. Chunki, mazu' ochiqcha bayon qilingan:

**Aslu pudungni aylagil taqrir,  
Dedi roviki: Ey baland sarir.**

**Shahrisabz ahli zodasidin men,  
Sa'dning xonavodasidin men.** (Navoiy, 2009: 171 ).

“Sab’ai sayyor” dostonida yer va maydon shaklida misra’lar, Xusravi Dihlaviyning asarlari va uning hayoti haqida xabar bermoqda. Hindustonning paytaxti bilan robitalar borligini bayon qiladi:

**Shahr anga Junpur oti Jaypur ,  
Zulm ila Hind mulkida mashhur.** (Navoiy, 2009: 186).

Natijada Amir Alisher Navoiy, Alloh Ta’oloning sevgisi va o’zining ustodlarining yordami bilan “Xamsa” asarini tamomladi. So’ngra buni mashhur ustodlariga taqdim qilmoqni istadi va bir yerda Hasani Dihlaviy bilan qarshima qarshi keldi. Bu muqobilada Hasani Dihlaviy o’zini Hazrati Navoiyga tonitib, quydagi fikirlarni ifoda etgan:

**Chu so`rdung meni, ey hadising qaviy,  
Hasandur otim, xalq deb – Dehlaviy.**<sup>23</sup>

**Eshitgach bu so`z, jismima tushti tob,  
Sarosima ko`nglumga ham iztirob.**

**Qo`lub uzr, quchtum yana ustuvor,  
Qadam qo`ydum ul sori mushtoqvor.**

**Borurda Hasan aytib otin manga,  
Qilib har birin boshqa talqin manga**

**Ki ,uch kimsadur sadri majlisnishin,  
Qilib sharh bir-bir alarning ishin.**

**Ki» :O`rtodag`i piri farruxjamol  
Ki ,vasfida keldi xirad nutqi lol,**

**Erur hazrati Shayx ,ogoh bo`l!  
Niyoz aylabon xoki dargoh bo`l.** (Navoiy, 2009: 915 ).

**Natija**

Amir Alisher Navoiy bilan Amir Xusravi Dihlaviyning ‘ayni rishadan ikanligi ma’lum bo’lib, Hazrati Navoiy va Xusravi Dihlaviy butun Turk (O’zbek) va Fors xalqining farhangi shaxsiyatlaridan biri va namoyandasi bo’lib tonilgan. Yana ham Hazrati Navoiyning va Amir Xusravi Dihlaviyning qilgan ishlari va ijodiyoti va fa’oliyatlari haqida qisqa ma’lumot berib, hamma dostonlaridan bir – bir namuna ko’rsatildi. Bu asarlarda qimmatli ma’lumotlar uchraydi va asarlari haqida tug’ilgan joyi, kimligi va boshqa ma’lumotlar ham king suratda bayon qiladi.

### **Manba’lar**

- BAYONIY, Oyxon (1990). *O’zbek Shoirlari*, Kobil: Vazorati Itlo‘Ot Nashriyoti.
- ISHONCH, Zikirullah, KOHKAN, Muhammad Alem (1995). *O’zbek Adabiyoti Farhangi*, Foryob: Davlat nashriyoti.
- MALAYOV, Natan (2000). *O’zbek Adabiyoti Tarixi*, Tarjuma: Nomiq Shahroniy, Kobil, Amiriy Nashriyoti.
- NAVOIY, Alisher (1983). *Xamsa*, Tayorlovchi: Abdul G’affor Bayoniy, Kobil: Davlat Nashriyoti.
- NAVOIY, Alisher (2006). *Majolisunnafoyis*, Tayorlovchi: Abdulloh Ruyin, Mazor sharif: Farhod Nashriyoti.
- NAVOIY, Alisher (2007). *Mahokimatul-lug’otayn*, Tayorlovchi: Abdulloh Ruyin, Mazor sharif: Farhod Nashriyoti.
- NAVOIY, Alisher (2017). *Xamsa*, Tayorlovchi: Abdulloh Ruyin, Mazor sharif: Suratgar Nashriyoti.